



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемуров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**MINTAQALARDA TADBIRKORLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA KICHIK
BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING O‘RNI VA
MEKANIZMLARI**

**РОЛЬ И МЕХАНИЗМЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ МАЛОГО БИЗНЕСА В
ФОРМИРОВАНИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ СРЕДЫ В РЕГИОНАХ**

**THE ROLE AND MECHANISMS OF STATE SUPPORT FOR SMALL BUSINESS IN
SHAPING THE ENTREPRENEURIAL ENVIRONMENT IN REGIONS**

Ibraximov X.S.

Namangan, NamDU, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mintaqalarning barqaror rivojlanishi bevosita kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning holatiga bog‘liq. Kichik biznes nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish vositasi, balki hududiy iqtisodiyot moslashuvchanligini ta‘minlovchi asosiy drayver hamdir. Maqolada davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, jumladan, moliyaviy-kredit dastaklari, soliqliq imtiyozlari va kichik sanoat zonalarini tashkil etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Yuqori demografik salohiyatga ega bo‘lgan Farg‘ona mintaqasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Muallif davlat va biznes o‘rtasidagi sinergiya mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlashning eng samarali yo‘li ekanligini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, mintaqaviy iqtisodiyot, tadbirkorlik muhiti, Farg‘ona vodiysi, makroiqtisodiy barqarorlik, investitsiya muhiti.

В современных экономических условиях устойчивое развитие регионов напрямую зависит от состояния малого бизнеса и частного предпринимательства. Малый бизнес является не только инструментом создания рабочих мест, но и ключевым драйвером гибкости региональной экономики. В статье рассматриваются механизмы государственной поддержки, включая финансово-кредитные инструменты, налоговые преференции и создание малых промышленных зон. Особое внимание уделено Ферганскому региону, обладающему высоким демографическим потенциалом. Автор обосновывает, что синергия государства и бизнеса является наиболее эффективным путем обеспечения макроэкономической стабильности и социального процветания регионов.

Ключевые слова: малый бизнес, государственная поддержка, региональная экономика, предпринимательская среда, Ферганская долина, макроэкономическая стабильность, инвестиционный климат.

In contemporary economic conditions, the sustainable development of regions directly depends on the state of small business and private entrepreneurship. Small business is not only a tool for job creation and increasing household income but also a primary driver of regional economic flexibility. This article examines the mechanisms of state support, including financial and credit instruments, tax incentives, and the establishment of small industrial zones. Special emphasis is placed on the Fergana region, characterized by high demographic potential and unique economic-geographic positioning. The author argues that strengthening the partnership between the state and business is the most effective way to ensure macroeconomic stability and overall national progress.

Keywords: small business, state support, regional economy, entrepreneurial environment, Fergana Valley, macroeconomic stability, investment climate.

Globalashuv va xalqaro raqobat kuchaygan hozirgi sharoitda milliy iqtisodiyotning barqarorligi ko‘p jihatdan hududiy tuzilmalarning samarali faoliyatiga bog‘liq. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarning markazida har bir mintaqaning ichki imkoniyatlari va «qiyosiy ustunliklari»ni ishga solish vazifasi turadi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy o‘shishning eng muhim drayveri hisoblanadi” [3].

Mintaqalarda sog‘lom tadbirkorlik muhitini shakllantirish faqatgina tabiiy resurslar yoki bozor omillariga bog‘liq bo‘lmay, balki davlatning tizimli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini talab etadi. Bu borada 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlik subyektlari uchun teng imkoniyatlar yaratish va xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [1]. Bu borada mamlakatimizning har bir mintaqasi, xususan, o‘zining yuqori demografik zichligi va boy ishlab chiqarish tajribasi bilan ajralib turuvchi Farg‘ona vodiysi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Farg‘ona mintaqasining geografik jihatdan chegaradosh hududlarda joylashganligi va yaqin kelajakda yirik transmintaqaviy transport koridorlariga integratsiyalashuvi kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi, zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Kichik biznes nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki hududiy iqtisodiyotning moslashuvchanligini ta’minlovchi asosiy kuchdir. Tadqiqotchi D.J. Storey va F.J. Greenening fikricha, kichik biznes subyektlari innovatsiyalarni joriy etishda yirik korxonalarga qaraganda tezroq moslashish qobiliyatiga ega [9]. O‘zbekiston sharoitida bu jarayonni tartibga solish uchun PF-5780-sonli Farmon bilan kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning yaxlit davlat tizimi yaratildi [2].

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mintaqalarning barqaror rivojlanishi bevosita kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning holatiga bog‘liq. Kichik biznes nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish vositasi, balki hududiy iqtisodiyotning moslashuvchanligini ta’minlovchi asosiy drayverdir. Biroq, mintaqalarda sog‘lom tadbirkorlik muhitini shakllantirish uchun faqatgina bozor mexanizmlari yetarli emas; bu jarayonda davlatning tizimli qo‘llab-quvvatlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, kredit foiz stavkalarining optimallasuvi kichik va o‘rta biznes subyektlarining texnik qayta qurollanish darajasini 15-20% ga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, soliq ta’tillari yangi tashkil etilgan korxonalarning “yashab qolish” koeffitsiyentini yaxshilaydi. Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi orqali kafilliklar berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Jahon banki hisobotlariga ko‘ra, bunday moliyaviy dastaklar rivojlanayotgan mamlakatlarda biznesning yashab qolish darajasini 20% ga oshiradi [11].

Soliq va ma’muriy imtiyozlar iqtisodiyotni tartibga solishning eng samarali vositalari bo‘lib, ular tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Mintaqalarda biznes jozibadorligini oshirishda pasaytirilgan soliq stavkalari muhim rol o‘ynaydi. Abdullaev A.M. va boshqalarning tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, soliq yukining kamayishi kapitalning hududlarga oqib o‘tishini rag‘batlantiradi [6].

Mintaqaviy iqtisodiyotda klaster tizimi ham alohida o‘rin tutadi. M. Porter nazariyasiga ko‘ra, klasterlar raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi [8]. Bu nazariya O‘zbekistonning Farg‘ona mintaqasi uchun ham o‘ta dolzarbdir.

Davlat ko‘magi tufayli hududlarda kichik biznes rivojlanib, aholi bandligi ta’minlanmoqda va migratsiya jarayonlari jilovlanmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining ko‘payishi bozorda sog‘lom raqobatni yuzaga keltirib, sifat va narx mutanosibligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, soliq tushumlarining ortishi mahalliy byudjetni mustahkamlab, hududning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishga keng imkoniyat yaratadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini oshirish va iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan takomillashtirishdan iborat. Makroiqtisodiy barqarorlik bu nafaqat milliy valyutaning mustahkamligi va past inflyatsiya darajasi, balki investitsiyalar uchun jozibador muhit yaratish orqali uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy o‘shishni kafolatlashdir.

Mamlakatimizning geografik joylashuvi va tabiiy xususiyatlariga ko‘ra Farg‘ona, Toshkent, Zarafshon, Janubiy, Mirzacho‘l va Quyi Amudaryo mintaqalariga bo‘linishi ularning aholi soni, mehnat ko‘nikmasi va ishlab chiqarish madaniyati jihatidan bir-biridan farq qilishini anglatadi. Ushbu xilma-xillik mintaqaviy YaIMdagi ulushlar va iqtisodiy o‘shish imkoniyatlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Aynan mana shunday murakkab va xilma-xil sharoitda mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash markaziy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Davlatning roli quyidagi strategik yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, davlat mintaqalarning o‘ziga xos ixtisoslashuvi va mahalliy mentalitetini hisobga olgan holda moliyaviy resurslarni yo‘naltiradi. Kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratish va investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali hududlardagi tabiiy boyliklardan samarali foydalanish imkoni yaratiladi. Bu esa pandemiyadan keyingi davrda iqtisodiy faollikni tiklashning asosiy omilidir.

Ikkinchidan, mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishda kichik biznes bog‘lovchi zanjir vazifasini o‘taydi. Masalan, Farg‘ona vodiysi viloyatlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda davlat tomonidan kichik biznes subyektlari uchun yaratilgan imtiyozlar hududlararo tovar ayirboshlash va qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mustaqil Hamdo‘stlik Mamlakatlari tajribasi va xalqaro forumlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy hamkorlik aynan kichik va o‘rta biznesning harakatchanligi tufayli ijobiy natijalarga erishadi.

Uchinchidan, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan infratuzilmaviy va huquqiy ko‘mak mintaqalardagi ishlab chiqarish madaniyati va mehnat ko‘nikmalarini makroiqtisodiy maqsadlarga moslashtirishga yordam beradi. Bu jarayon milliy valyuta barqarorligini saqlash va kapitalning hududlar bo‘ylab erkin harakatlanishini ta‘minlash bilan uzviy bog‘liqdir.

Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bu nafaqat iqtisodiy yordam, balki hududiy xilma-xillikni milliy makroiqtisodiy barqarorlikka integratsiya qilish mexanizmidir. Davlat tomonidan yaratilgan qulay shart-sharoitlar kichik biznesni mintaqaviy rivojlanishning asosiy kuchiga aylantiradi va YaIMning barqaror o‘shishini ta‘minlaydi.

Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda davlatning roli nafaqat moliyaviy yordam ko‘rsatish, balki barqaror biznes muhitini kafolatlashdan iborat. Davlat va biznes o‘rtasidagi sheriklik aloqalarining kuchayishi mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini to‘liq yuzaga chiqarish va mamlakatning umumiy taraqqiyotini ta‘minlashning eng samarali yo‘lidir. Tadbirkorlikka berilayotgan e‘tibor bu ertangi kun iqtisodiyotiga kiritilgan eng ishonchli investitsiyadir.

Farg‘ona mintaqasi (Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlari) respublika hududining 4,3 foizini egallasa-da, unda mamlakat aholisining qariyb 28,6 foizi istiqomat qiladi [10]. Bunday yuqori demografik zichlik sharoitida aholi bandligini ta‘minlashning yagona yo‘li kichik biznesni rivojlantirishdir. Bunday cheklangan maydonda yuqori demografik salohiyatning mavjudligi mintaqada tadbirkorlik muhitini shakllantirish va kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni ustuvor vazifaga aylantiradi.

Farg‘ona mintaqasi deyarli barcha tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan bo‘lib, qo‘shni Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalari bilan chegaradoshdir. Kelgusida Xitoy va Pokistonga chiqish imkoniyatining yaratilishi mintaqaning hozirgi berk holatini bartaraf etadi va iqtisodiy-geografik o‘rning ahamiyatini keskin oshiradi. Bunday sharoitda davlat tomonidan kichik biznes subyektlariga xalqaro bozorlarga chiqish va eksport zanjirlariga integratsiyalashishda ko‘maklashish hududiy barqarorlikning garovi hisoblanadi.

Mintaqada hudud hosil qiluvchi an‘anaviy tarmoqlar paxtachilik, pillachilik, bog‘dorchilik, yengil va oziq-ovqat sanoati bilan bir qatorda kimyo, neft-kimyo hamda avtomobilsozlik kabi yuqori texnologik sohalar rivojlanib bormoqda. Davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi yirik sanoat va avtomobilsozlik korxonalari atrofida butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlik subyektlarini shakllantirish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini (paxta, pilla,

meva-sabzavot) qayta ishlovchi kichik korxonalarga imtiyozlar berish orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini takomillashtirishdan iborat.

B.A. Rayzberg ta’kidlaganidek, makroiqtisodiy barqarorlik investitsiya va tejash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni talab etadi. Farg‘ona mintaqasida aholi zichligining yuqoriligi va mehnat resurslarining ko‘pligi davlat zimmasiga tadbirkorlik uchun infratuzilma yaratish mas’uliyatini yuklaydi. Davlat tomonidan kichik biznesning qo‘llab-quvvatlanishi - aholining o‘ziga xos mehnat ko‘nikmasi va ishlab chiqarish madaniyatidan samarali foydalanish, shuningdek, mintaqaning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini mutanosib ravishda oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona mintaqasining geografik o‘rni va yuqori demografik salohiyati kichik biznesni mintaqa rivojlanishining lokomotiviga aylantirishni taqozo etadi. Davlatning tizimli ko‘magi esa chekka va tog‘li hududlarda ham sog‘lom tadbirkorlik muhiti shakllanishiga, natijada mintaqaning respublika iqtisodiyotidagi barqaror o‘rni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son. 2022 yil 28 yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashning davlat tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5780-son. 2019 yil 13 avgust.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2021.
4. Райзберг Б.А. Современный социальноэкономический словарь. – М.: ИНФРА-М, 2012.
5. Vaxabov A.V. va boshqalar. Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy islohotlar. – T.: Moliya, 2020.
6. Abdullaev A.M. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2019.
7. Ibragimov X.S. Farg‘ona vodiysi viloyatlari iqtisodiy hamkorligining o‘ziga xos xususiyatlari // Iqtisodiyot va moliya. – 2020. – №2.
8. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition. // Harvard Business Review. – 1998.
9. Storey D.J., Greene F.J. Small Business and Entrepreneurship. – Financial Times/Prentice Hall, 2010.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. Statistik to‘plam. – T., 2023.
11. World Bank. Uzbekistan: Small and Medium Enterprise Development Project. – Washington, D.C., 2021.
12. Gulyamov S.S. Small Business and Private Entrepreneurship: Statistics and Analysis. – Tashkent, 2022.